

ISSN 2181-7138

# МУАЛЛИМ ХЭМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИУ



*Илимий-методикалық журнал*

---

**2023**

**1/3-сан**

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы  
Жоқаргы Аттестация Комиссиясы Президиумының  
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз хәм хабар агентлиги тәрәпинен  
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.  
№01-044-санлы гүўалық берилген.*

Нөкис

<b>Karimjonov A.</b> “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” asosida boshlang‘ich ta‘lim tizimini takomillashtirish davr talabi .....	308
<b>Matupayeva Sh. Z.</b> Inklyuziv ta‘limning imkoniyati cheklangan bolalar uchun ijtimoiy ahamiyati .....	312
<b>Ochilov F. I.</b> Kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tabiiy-ilmiy bilimlarni o‘rgatish imkoniyatlari .....	319
<b>Jabborova O., Saparbayeva D.</b> Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi diagnostikasi .....	327
<b>Sultanov T. M.</b> Ilk boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasining muhim jihatlari va izohi .....	335
<b>Maxmudova D. M., Mirxalilova N. A.</b> Funktsional savodxonlik tushunchasi va uni shakllantirish usullari .....	340
<b>Ochilov F. I., Ashurova F. S.</b> Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tabiiy-ilmiy bilimlar hamda mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish usullari .....	347
<b>Hikmatov I. M., Ochilov F. I.</b> Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatga tayyorlashning innovatsion texnologiyalari .....	355
<b>Rustamova N. X.</b> “Boshlang‘ich ta‘limda yosh fiziologiyasi va gigiyenasi” fanining ahamiyati .....	364
<b>Usmonova Q. S.</b> Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tankidiy fiklashni shakllantirishda pedagogik – psixologik integratsiya va uzluksizlik .....	370
<b>Karshiyeva D. E.</b> Boshlang‘ich ta‘lim sotsiologiyasi mazmuni .....	376
<b>Abdurashidov A.</b> Maktabgacha ta‘lim pedagogikasining dolzarb muammolari .....	382
<b>Назирова Г. М.</b> Ривожлантирувчи марказ: Халк қўшиқлари ва ўйинлари болаларда миллий ғурур ҳиссини тарбиялаш воситаси сифатида .....	392
<b>Эсонова М. А.</b> Практическая деятельность детей в дошкольном образовательном учреждении .....	402
<b>Арсланова Г. Дж., Панкина М. С.</b> Воспитание национальных и общечеловеческих ценностей у младших школьников .....	409
<b>Арсланова Г. Дж., Сытина Н. В.</b> Инклюзивное обучение в начальном образовании .....	414

## ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ХЭМ СПОРТ

<b>Alimardonov A. N.</b> “Bolalar sportini rivojlantirishda milliy o‘yinlarining ahamiyati” .....	419
<b>Alimov Q. A., Daminov I. A.</b> Sog‘lom turmush tarzining tarixiy rivojlanishi va uning mohiyati .....	425
<b>Toshbayev X. Y.</b> Maktabdan tashqari jismoniy tarbiya va sport ishlarini amalga oshirishning takomillashtirish yo‘llari .....	430
<b>Jo‘rayeva S. B.</b> Kurashchi qizlarning trenirovka jarayonida texnik tayyorgarligini takomillashtirish yo‘llari .....	434
<b>Mengliboyeva O. A.</b> Халк педагогикасида болаларнинг ўйини ва унинг тарбиявий аҳамияти .....	438
<b>Toshboev B. SH.</b> Sport tibbiyotida qo‘llaniladigan tibbiy nazorat usullari .....	443
<b>Alimov Q. A., Xo‘jayev O‘. X.</b> Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining chaqqonlik sifatlarini tarbiyalashda muvofiqlashtirish qobiliyatini rivojlantirish texnologiyasi .....	446
<b>Xo‘jayev A. Q.</b> Kuchli tayyorgarlik vositalaridan foydalangan holda yosh erkin kurashchilarning texnik tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi .....	451
<b>Payg‘amova S.</b> Qisqa masofaga yuguruvchilarni yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlarini rejalashtirish .....	455
<b>G‘afforova D. B.</b> Gandbolchilarning hujum va himoyadagi texnik usullarini rivojlantirish metodikasi .....	459
<b>Худайберганов О. К.</b> Педагогические аспекты проблемы ценностного отношения к физической подготовке у курсантов и слушателей высших учебных заведений структуры МВД Республики Узбекистан .....	463
<b>Ашуров Б. Ш.</b> Стритбол в Республике Узбекистан .....	469



## BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA TABIIY-ILMIY BILIMLAR HAMDA MUSTAQIL O‘QISH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

*Ochilov F. I.*

*pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

*ChDPU “Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi.*

*Ashurova F. S.*

*ChDPU “Boshlang‘ich ta‘lim” yo‘nalishi 4-kurs talabasi*

**Tayanch so‘zlar:** sinfdan tashqari o‘qish, interfaol usullar, mustaqil o‘qish, badiiy asarlar, lug‘at boyligi, tabiiy-ilmiy bilimlar, nutq ta‘sirchanligi.

**Ключевые слова:** внеклассное чтение, интерактивные методы, самостоятельное чтение, художественные произведения, лексика, естественнонаучные знания, речевая результативность.

**Key words:** extracurricular reading, interactive methods, independent reading, artistic work, vocabulary, natural science knowledge, speech performance.

Inson, uning har tomonlama uyg‘un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro‘yobga chiqarishning sharoitlarini va ta‘sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o‘zgartirish respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O‘zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir O‘zbekiston ta‘lim tizimini isloh qilishning dasturiy hujjatlarida ta‘limga bilimdon va harakatchan, tez o‘zgarayotgan ijtimoiy, informatsion va texnologik sharoitlarda kasbiy, ijtimoiy va psixologik o‘rnini topa oladigan insonni tarbiyalay oladigan kadrlar tayyorlash dolzarb masala sifatida ta‘kidlangan. [2]

Yosh avlod shaxsida komil insonga xos fazilatlarini shakllantirishda boshlang‘ich ta‘limda sinfdan tashqari o‘qish darslarining mazmunini va tashkil etish shakllarini zamon talablari darajasiga ko‘tarish, ularga hozirgi tez sur‘atlar bilan o‘zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o‘ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashayotgan, axborotlar oqimining ko‘pligi ta‘sirida dunyoqarashi



keng kichik yoshdagi bolalar ehtiyojini hisobga olib yondashish zarur. Axborot texnologiyalari davrida, “hozirgi paytda yer yuzining qaysi chekkasida qanday voqea yuz bermasin, odamzod bu haqda dunyoning boshqa bir chekkasida turib, zudlik bilan xabar topishi hech kimga sir emas”ligidan kelib chiqib, kompyuter, televideniylarning keng ommalashuvi sinfdan tashqari o‘qish darslarini tashkil etishga katta mas’uliyat bilan yondashishni talab etadi.

Har qanday holatda ham bolaga kitob o‘qishni, kitobni tanlab o‘qishni, unga to‘g‘ri munosabat bildira olishni o‘rgatish sinfdan tashqari o‘qish darslarining vazifasidir.

Boshlang‘ich ta’limda sinfdan tashqari o‘qish darslarini tashkil etish bo‘yicha interaktiv metodlardan foydalanish xususida ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lib, ularda ijtimoiy, gumanitar va tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonida foydalanish imkoniyatlari yoritilgan, interfaol usullar yordamida o‘quvchilarni mustaqil faoliyatga yo‘naltirish, ta’lim jarayonida faollikni yuzaga keltirish orqali mavzularni o‘zlashtirish samaradorligini oshirishga qaratilgan qarashlar ilgari surilgan. Bularndan Sh.Yusupovanning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili darslarida o‘quvchilar tafakkurini o‘stirishning falsafiy asoslari” nomli monografiyasida [6], H.Hasanboyevaning “Boshlang‘ich sinflarda adabiyot o‘qitish metodikasi” [5] nomli darsligida adabiy ta’limda o‘quvchilarni mustaqil faoliyatga yo‘naltirishning asoslaridan biri sifatida ilg‘or pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar ko‘rsatilgan. Professor S.Matchonov “Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish” kitobida: badiiy asarlar matni ustida ishlash jarayonida ularning janriy xususiyatlaridan tashqari, mavzusi ham nazarda tutilgan holda metodik ishlar tashkil qilinadi. Masalan, tabiat tasviriga oid matnlar ustida ishlashda tabiat bag‘riga sayohat uyushtirilib, bolalar kuzatuvchanlikka o‘rgatilsa, vatanparvarlikka oid asarlar tahlili vatanning dongdor kishilari bilan uchrashuvlar yoki mavzuga daxldor kinofilmlar namoyishi vositasida amalga oshirilsa, dars samaradorligi yanada ortadi” [7; 5-b.] – degan asosli fikrni bildiradi.

Boshlang‘ich ta’limda sinfdan tashqari o‘qish darslarini tashkil etish bo‘yicha bir qancha metodist va o‘qituvchilarning maqolalari e‘lon qilingan. Jumladan, professor Q.Abdullayeva, K.Qosimova, O.Safarov, S.Matchonov, B.Ma‘qulova, T.Adashboyev, Ye.Abduvalitov, D.Shodmonqulova, X.G‘ulomovalarning o‘quv qo‘llanmalari, metodik qo‘llanmalari va maqolalari nashr etilgan. Ularda kitob tanlash tamoyillari, sinfdan tashqari o‘qish darslari mavzulari, yozuvchi va shoirlar bilan tashkil etiladigan uchrashuvlar, sinfdan tashqari o‘qish darslarida yozuvchi va shoirlarning asarlarini o‘rganish, sinfdan tashqari o‘qish darslarida krossvordlar, ta’limiy o‘yinlardan foydalanish masalasi ko‘rib chiqilgan.



Sinfdan tashqari o'qish darslarini tashkil etish bo'yicha B.Ma'qulovanning tadqiqot ishida ham salmoqli fikrlar bayon qilingan, lekin hozirgi davr talabi bu ishlarni takomillashtirishni taqozo etadi.

Boshlang'ich ta'limda sinfdan tashqari o'qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, ularni muayyan mavzularni o'rganishda qo'llash, tatbiq etish o'quvchilarning dastur talablari darajasidagi bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlarini ta'minlashi lozim.

Keyingi yillarda O'zbekistonda ham ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirishning nazariy asoslarini yaratish bo'yicha B.Farberman, N.Saidahmedov, M.Ochilov, U.Nishonaliyev, S.Yu.Mahmudov, O'.Tolipov, M.Usmonboyeva, K.Zaripov, Q.Abdukarimov, U.Sattorovlar izlanishlar olib bordilar. Ular pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish afzalliklari, mutaxassislik fanlarini o'qitishni yo'lga qo'yishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishning imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqot ishlarini amalga oshirdilar. Hozirgi vaqtda pedagogik texnologiyalarni muayyan yo'nalishlar fan sohasiga tatbiq etish bo'yicha ham qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda, pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkonini beruvchi loyihalar yaratilmoqda, ular albatta, ta'lim samaradorligini oshirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan, T.G'afforova, D.Po'latovalarning metodik qo'llanmasida o'qish, ona tili, tabiatshunoslik darslarini interfaol usullar asosida tashkil etish yoritilgan [4].

"Ta'lim to'g'risida"gi qonunda "o'qitishning ilg'or shakllari va ilg'or pedagogik texnologiyalarni, ta'limning texnik va axborot vositalari o'quv jarayoniga joriy etish" asosiy masalalardan biri deb ko'rsatilgan. [1]

Boshlang'ich ta'limda sinfdan tashqari o'qish darslari samaradorligini ta'minlovchi interfaol metodlardan foydalanish, o'qitishning noan'anaviy usullarini qo'llash juda muhimdir. Jumladan, sinfdan tashqari o'qish darslarida uyushtiriladigan o'yinlar ko'ngilochar mashg'ulot bo'lmasdan, ta'limiy xarakterga ega bo'lishi, o'rganilayotgan asar mazmunini o'zlashtirishga, asar yuzasidan ta'limiy va tarbiyaviy xulosa chiqarishga qaratilishi lozim. Interfaol usullardan o'rinli, o'quvchilarning qobiliyatlarini hisobga olgan holda foydalanish lozim.

Sinfdan tashqari o'qish darslarida badiiy asarlarni o'rganish jarayoniga interfaol usullarni tatbiq etish orqali matn mazmunini o'zlashtirishni, badiiy tilni tahlil qilish, badiiy vositalarni o'rganish, asar mazmunini qayta himoyalashga o'rgatish orqali o'quvchilarning nutqini o'stirish va fikrini uslubiy jihatdan to'g'ri va emotsional jihatdan ta'sirchan ifodalashga o'rgatishni samarali amalga oshirish mumkin.



Interfaol usullarning juda ko'p ko'rinishlari mavjud bo'lib, boshlang'ich sinf ona tili, o'qish, tabiatshunoslik darslarida qo'llash mumkin bo'lgan seminar darslar, konferensiya darslari, "Aqliy hujum", "Kichik guruhlarda ishlash", "Sinkveyn", "BBB" (Bilar edim, bilishni xohlayman, bilib oldim), "Debatlar", "Tanqidiy tafakkur", "Charxpalak", "Venn diagrammasi", "Tushunchalar tahlili", "Baliq skeleti", "Zinama-zina" va boshqalardir. Bu usullardan o'quvchining yoshi, psixologik xususiyati, bilim darajasiga qarab foydalanilmasa, qilingan ishlar samara bermaydi.

Noan'anaviy darslarning turi ham juda ko'p: ertak, sayohat, musobaqa, bozor, sport o'yin turlaridan foydalanib yaratilgan darslar yaxshi samara bermoqda. Bu o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirmoqda. Lekin Pedagogik amaliyot davridagi kuzatishlarimizdan shuni ayta olamizki, bu darslarni ba'zi o'qituvchilar sahna darsiga aylantirib, bir bor o'tilgan darsni ssenariysidan foydalanib, har safar kelgan dars kuzatuvchisiga namoyish qilib, o'quvchilarni dangasalikka o'rgatmoqdalar. O'quvchilarda o'yinga qiziqish uyg'onib, jiddiy bilim olishga intilish yo'qolib bormoqda.

Maktablarda qo'yilayotgan eng muhim talablardan biri shaxsning ijodiy sifatlarini rivojlantirishdir. Shuning uchun o'qitish jarayonini samarali usullar asosida tashkil etish bilimlarni mustahkam egallashga, ta'lim jarayonidagi qiyinchiliklarni yengishga o'rgatadi, bilim olishga qiziqishni kuchaytiradi. Lekin o'quvchilarda bilishga qiziqishni uyg'otish uchun ular ma'lum darajada boshlang'ich bilimga ega bo'lishi lozim. Bu bilimlar zaxirasini suhbat usulida yaratish mumkin.

Noan'anaviy shaklda tashkil etilayotgan sinfdan tashqari o'qish darslari o'quvchilarning jamoa bo'lib kichik guruhlarda faoliyat ko'rsatishi ko'nikmalarini shakllantiradi, mustaqil fikr yuritish, fikrni erkin ifodalash, boshqalar fikrini tinglash, mulohaza yuritish, ulardan eng muhimlarini ajrata olish, o'z fikrini ilgari surish, uni dalillash, fikrlarni umumlashtirish va xulosalashga o'rgatadi. Interfaol metodlar o'quvchilarda o'quv materialini o'rganishga qiziqish uyg'otish bilan birga, ehtiyojni ham yuzaga keltiradi. Ta'lim samaradorligini oshirishning omili sifatida e'tirof etilayotgan interfaol metodlarni boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari o'qish darslariga ham tatbiq etish orqali o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi ko'tariladi.


Sinfdan tashqari o'qish darslarini tashkil etishda "Aqliy hujum", "Klaster", "Kichik guruhlarda ishlash", "6x6x6", "Lahzada aql charxi", "Qarorlar mojarosi" (qaror qabul qilish texnologiyasi) kabi interfaol usullardan va ta'limiy o'yinlardan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, fikrini jamoa bilan



maslahatlashishga o'rgatadi, muammolarni hal qilishda ishtirok etish maylini yuzaga keltirdi.

Sinfdan tashqari o'qish darslarida o'rganiladigan turli mavzulardagi asarlarni o'rganishda muammoli vaziyatlar yaratish ham o'quvchilarda o'quv faoliyatini aktivlashtirishga xizmat qiladi.

Misol uchun, 4-sinf O'qish darsida "Zumrad bahor" [8; b.154-166] mavzusini o'rganishda interfaol usul "Klaster" dan foydalaniladi. O'quvchilar o'qigan asarlari: Muzayyana Alaviyaning "Navro'z – bahor bayrami" hikoyasi, Aziz Abdurazzoqning "Danak ichidagi daraxt" ertagi, Abdurahmon Akbarning "So'zlovchi yomg'ir", H.Rahmatning "Jala darakchisi", Q.Hikmatning "Bahor" kabi she'rlari asosida "Bahor" mavzusida klaster hosil qiladilar. Bu quyidagi ko'rinishda bo'ladi:



O'quvchilar "Klaster" da yozgan so'zlarni o'qigan asarlari yoki yodlagan she'rlaridan misollar keltirib izohlaydilar.

3-sinf Tabiatshunoslik darsida "Hayvonot dunyosi" [3. 82-b] mavzusini o'rganishda "Aqliy hujum" metodidan foydalaniladi. O'qituvchi hayvonot dunyosi haqida nimalarni bilishlarini o'quvchilardan so'raydi. O'quvchilar Anvar Obidjon, Tursunboy Adashboyevning she'rlari asosida quyidagi fikrlarni aytadilar:

- hayvonlar juda ko'p;
- yovvoyi hayvonlar bor, uy hayvonlari bor;
- hayvonlarning go'shtidan, yungidan, terisidan foydalanamiz;
- hayvonlardan ish quroli sifatida foydalaniladi;



– ba’zi hayvonlar “Qizil kitob”ga ham kiritilgan.

Sinfdan tashqari o‘qish darslarini tashkil etishda o‘qituvchi va o‘quvchilar faoliyatini o‘rganish, o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish darajasini test sinovlari va yozma ishlari orqali aniqlash, o‘qituvchi faoliyatini anketa so‘rovlari yordamida tahlil qilish asosida shu narsaga amin bo‘ldikki, sinfdan tashqari o‘qish darslarida hosil qilinadigan ko‘nikma va malakalarni o‘quvchilar an’anaviy shaklda tashkil etilayotgan dars mashg‘ulotlarida o‘zlashtira olmaydi. Bundan tashqari, boshlang‘ich sinf sinfdan tashqari o‘qish dasturida o‘tmishni o‘rganish, Vatan va tabiat mavzulari, shoir va yozuvchilar ijodini o‘rganish sinfdan sinfga o‘tgan sari murakkablashib boradi. Bu qiyinchiliklar o‘z-o‘zidan samarali metodik yondashuvni taqozo etadi.

Sinfdan tashqari o‘qish darslarida o‘zbek bolalar yozuvchilari asarlarini mustaqil o‘qishlarini tashkil etishda ilg‘or usullardan foydalanish bolalarda ularning ijodiga qiziqish uyg‘otadi va bolalar mustaqil ravishda ularning boshqa asarlarini ham topib o‘qiydi. Masalan, Tursunboy Adashboyev ijodini sinfdan tashqari o‘qish darslarida o‘rganish o‘quvchilarda uning ijodiga katta qiziqish uyg‘otadi. Tursunboy Adashboyevning “Qish” she’rining hajmi unchalik katta emas. Lekin u qishda hayvonlar hayotida ro‘y beradigan o‘zgarishlarni bilib olishga yaqindan yordam beradi. Bu she’rni o‘qishdan oldin ham o‘quvchilar bilan savol-javoblar o‘tkaziladi. O‘quvchilar diqqati hayvonlarning qishdagi hayotiga qaratiladi. Masalan, qishda yovvoyi quyonlarning rangi o‘zgarib, qorda o‘zini dushmandan himoya qiladigan oq rangga kirishi, ayiqning o‘siq yunglari sovuqda yashashga qo‘l kelishi to‘g‘risida tushuncha beriladi. She’r matni bilan tanishishdan oldin xat taxtaga “ayoz”, “quyruq”, “so‘qmoq”, “piyma”, “po‘stin” “paxmoq” so‘zlari yozilib, ma’nosi izohlanadi. She’rni navbat bilan o‘quvchilarga to‘rt-besh marta o‘qitilganidan keyin uning mazmuni yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi. She’rning to‘la mazmuni uch-to‘rt o‘quvchilarga gapirtiriladi, ularning fikr-mulohazalari to‘ldiriladi. Mazkur mavzuni o‘rganish jarayonida maktab atrofiga sayohat uyushtirish ham mumkin. Qishda qor bosgan dalalarni, tomlarni, daraxtlarni, odamlarning va qushlarning qishdagi hayotini kuzatish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va nutqining ifodali, sermazzmun bo‘lishi, tabiiy-ilmiy bilimlarni mustahkam egallashlari uchun boy material beradi.

O‘quvchilar barglari to‘kilib, sovuqda qor bosib turgan daraxtlarni ko‘rar ekan, shu holatni ifodalagan “qor ko‘rpasiga o‘rangan yalang‘och daraxt” yoki “sovuqda mudrayotgan daraxt” kabi iboralarni topishga harakat qiladi, bu esa o‘quvchilarning lug‘at boyligining oshishiga xizmat qiladi.





Sinfdan tashqari o'qish darslarida badiiy matnning lisoniy tahliliga ham e'tiborni kuchaytirish lozim. O'qish dasturining o'quvchilar bilimiga qo'yiladigan talablarida ularning ayrim tasvir vositalari va badiiy til elementlarini bilishlari zarurligi qayd etilgan bo'lsa, o'quvchilarning ko'nikma va malakalariga bog'liq talablarida "tilning ifoda vositalarini o'rinli qo'llay olish va ularning uslubiy imkoniyatlaridan foydalana olish"lariga e'tibor qaratilgan. Jumladan, o'qish dasturida va darsliklarida badiiy asar tili tahliliga quyidagi talablar qo'yilgan:

- o'qish mashg'ulotlarini o'tkazish jarayonida o'quvchilarda nutq faoliyatining asosiy ko'rinishi bo'lgan ko'nikmalari, matn va kitob ustida ishlash, o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirish, nutq madaniyatini rivojlantirish nazarda tutiladi;
- 7-11 yoshli bolalarning nutqini takomillashtirish uchun uning nutqidagi kamchiliklarni o'qish darslaridagina emas, balki tabiatshunoslik, matematika kabi barcha predmetlar yuzasidan o'tkaziladigan darslarda hamda darsdan va maktabdan tashqari uyushtiriladigan mashg'ulotlar jarayonida ham tuzatib borishga alohida ahamiyat berilishi zarur;
- matn ustida ishlash murakkablashib boradi, bolalar o'qituvchi rahbarligida asarning asosiy mazmunini aniqlaydilar, qahramonlarning xatti-harakatini ifodalovchi so'z va iboralarni topishga, voqea-hodisalarni so'z bilan tasvirlashga o'rganadilar. Ularda so'z boyligiga talab ortadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, sinfdan tashqari o'qish darslarida o'quvchilar badiiy asarlarni mustaqil o'qish orqali ularda lug'at boyligi, nutq ta'sirchanligi oshdi, mustaqil o'qish ko'nikmalari shakllandi va shu bilan birga, ularda tabiiy-ilmiy bilimlar mustahkamlandi. Pedagogik amaliyot davrida ushbu jarayonda biz, asosan, o'quvchilarning mustaqil o'qigan asarlarini hisobga olib borishga katta e'tibor qaratdik. Natijada, 1-2 sinf o'quvchilari kundalik daftarlariga mustaqil o'qigan asarlari nomi va muallifini yozib bordilar. 3-4 sinf o'quvchilari esa o'qigan asarlarini hisobga olib boruvchi, o'z munosabatlarini qisqa qilib yozib qo'yuvchi maxsus daftar tutdilar. Amaliyot so'ngida otanalar yig'inida, bayram tadbirida mustaqil kitobxonlik darajasi yuqori bo'lgan o'quvchilar rag'batlantirildi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kitobxonlik saviyasi targ'ib qilinayotgan asarlar, yozuvchilar ijodi, o'qilgan asar yuzasidan uyushtirilgan bahs-munozaralar sifatiga bog'liq bo'ldi.

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-637. 23.09.2020. ([www.lex.uz/ru/docs](http://www.lex.uz/ru/docs))



2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi” to‘g‘risidagi PF-5712-sonli Farmoni. (www.lex.uz)

3. Bahromov A. [va boshq.]. Tabiatshunoslik [Matn]: 3-sinf o‘quvchilari uchun darslik. 6-nashr. – T.: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2019. – 128 b.

4. G‘afforova T., Pulatova D. Boshlang‘ich ta’limga innovatsion texnologiyalarni joriy etish usullari. – T.: 2011.

5. Husanboyeva Q. [va boshq.]. Boshlang‘ich sinflarda adabiyot o‘qitish metodikasi. Darslik. Toshkent. “Innovatsiya-Ziyo”, 2020, 380 b.

6. Yusupova Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili darslarida o‘quvchilar tafakkurini o‘stirishning falsafiy asoslari // Monografiya. – Toshkent: Fan, 2004. – 164 b.

7. Matchonov S. [va boshq.]. Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish. –T/: Yangiyo‘l poligraf servis. 2008.

8. Matchonov S. [va boshq.]. O‘qish kitobi 4-sinf: umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik / – Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 6-nashr. – T.: “Yangiyo‘l poligraf servis”, 2017. – 216 b.

#### **РЕЗЮМЕ**

Maqolada boshlang‘ich sinf “Ona tili”, “Tabiatshunoslik”, “O‘qish” darsliklari orqali sinfdan tashqari o‘qish darslarida o‘quvchilarda mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish, tabiiy-ilmiy bilimlarni o‘zlashtirish usullari, vositalari va bu borada olib borilgan pedagogik izlanishlar haqida fikr yuritilgan.

#### **РЕЗЮМЕ**

В статье рассмотрены вопросы формирования навыков самостоятельного чтения у учащихся, методы, средства и приёмы овладения естественнонаучными знаниями на уроках внеклассного чтения, опираясь на содержание учебников «Родной язык», «Естествознание», «Чтение» и в связи с этим, проведёнными педагогическими исследованиями в начальной школе, приведено своё мнение.

#### **SUMMARY**

The article deals with the formation of students’ independent reading skills, methods, means and techniques for mastering natural science knowledge in extracurricular reading lessons in elementary school “Native language”, “Natural science”, “Reading” in the lessons of pedagogical research, carried out in this regard is discussed.